



Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!

# Vaziyat

2024 йил  
03 октябрь  
№ 40 (981)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

Гулистон шаҳридаги Алпомиш спорт мажмуасида ФВВ тизимидаги ҳарбий хизматчилар ўртасида қўл жанги бўйича “Фавқулдда вазиятлар вазири кубоги” мусобақаси ташкил этилди.

## ВАЗИР КУБОГИ ТОПШИРИЛДИ



Тантанали очилиш маросимида иштирок этган Фавқулдда вазиятлар вазирининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи полковник Санжар Зупаров ва Сирдарё вилояти ҳокими – фуқаро муҳофазаси бошлиғи Акмалжон Маҳмудалиевлар мамлакатимизда амалга ошири-

лаётган ислохотлар, жумладан, жисмоний тарбия ва спортга қартилаётган эътибор, Янги Ўзбекистон келажагини юксалтириш, миллат генофондини янада соғломлаштиришга қаратилган ишлар хусусида сўз юритишди.

Таъкидланганидек, юртимизда жисмоний тарбия ва спортни омалаштириш ижтимоий сиёсатнинг муҳим йўналишларидан бири этиб белгиланган. Чунки спорт аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш, ёш



авлодни соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш орқали жамиятда соғлом турмуш тарзини қарор топтиради. Ёшлар ўртасида зарарли одатларнинг олдини олади. Юксак маданият, ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришда ҳам муҳим ўрин тутаяди. Ушбу соҳада эришилган ютуқлар

мамлакатни дунёга танитади, барчамизга ғурур-ифтихор бағишлайди.

Икки кун мобайнида бўлиб ўтган мусобақада 140 нафар спортчи иштирок этиб, қўл жанги бўйича маҳоратларини намойиш этдилар.



Қизғин кечган беллашувларда ҳар бир спортчининг иштироки ҳакамлар ҳайъати томонидан муносиб баҳолаб борилди. Ўзаро куч синашиш натижасида сараланиб, мусобақанинг финал босқичига етиб келган энг кучли спортчилар кескин баҳс мунозараларга бой шиддатли жанг олиб бордилар.

Мусобақа натижаларига кўра, 62 кг. вазнда Хоразм вилояти ФВБ ходими Бекзод Атажанов, 73 кг. вазнда Жиззах вилояти ФВБ вакили Камронбек Аҳмедов, Сирдарё вилояти ФВБ ходимлари Виталий Панаитов 88 кг. вазнда, Эргаш Назаров +97 кг. вазнда биринчиликни қўлга киритдилар.

Беллашувнинг яқунларига кўра, умумжамоа ҳисобида учинчи ўринни Хоразм вилояти, иккинчи ўринни Навоий вилояти, биринчи ўринни Сирдарё вилояти жамоалари эгаллади.

Ғолиб ва совриндорларга диплом, медаль ва эсдалик совғалари топширилди.



## ҲУРМАТ-ЭҲТИРОМ НАМУНАСИ

Фавқулдда вазиятлар вазирлиги томонидан Самарқанд вилоятида “1 октябрь – Ўқитувчи ва мураббийлар кuni”га бағишланган байрам тадбири ташкил этилди. Унда вазирлик раҳбарияти, тизимда узоқ йиллар хизмат қилган фахрийлар, вазирлик таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари, ёш ҳарбий хизматчилар ҳамда ФВВ ҳузурдаги Жамоатчилик кенгаши аъзолари иштирок этди.

Ўзаро суҳбат ва мулоқотларда мамлакатимизда инсон омилига юксак эътибор берилётгани, давлатимиз раҳбари ташаббуси билан жамиятимизнинг ҳар бир аъзосига ғамхўрлик, меҳр-оқибат кўрсатилётгани, инсон кадр-қиммати, унинг орзу-ниятларини рўёбга чиқаришга имконият яратиб бериш устувор вазифага айлангани таъкидланди.

Тадбирда сўз олган меҳмонлар, нуронийлар Ватанимиз ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий ҳаётидаги, халқимиз, айниқса, ёшларимиз тафаккуридаги ўзгаришлар, Янги Ўзбекистонни барпо этиш йўлида олиб борилаётган ишлар, ана шу жараён-



ларда фидойилик билан меҳнат қиладиган замонамиз қаҳрамонлари ҳақида гапирди. Келажагимиз эгалари ёшларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, юксак маънавиятли, билимдон ёшларни тарбиялаш, уларнинг қалбида она Ватанга муҳаббат, миллий қадриятларимиз, истиқлол ғояларига ҳурмат ва садоқат туйғуларини мустаҳкамлаш муҳимлиги алоҳида қайд этилди. Мамлакатимизда ҳукм

сураётган тинчлик-осойишталик, миллатлараро тотувлик, бағрикенглик муҳитини кўз қорачиғидек асраб-авайлаш, бундай бебаҳо бойликни муттасил бойитиб бориш масалаларига алоҳида тўхталиб ўтилди.



Шунингдек, ушбу тадбир доирасида вазирлик тизимида узоқ йиллар самарали хизмат қилган фархийлар, ёш ҳарбий хизматчилар ва ўрта авлод вакиллари иштирокида “Уч авлод учрашуви” бўлиб ўтди. Унда сўз олган фахрийлар ўз ҳаёти ва меҳнат фаолияти давомида тўплаган бой тажрибаси, ёшлик давридаги ўзига хос қийинчиликлар, меҳнат палласидаги машаққатлар, ниҳоят нуронийлик пайтида кўрсатилаётган ҳурмат-эҳтиром ҳақида дил сўзларини билдирдилар.

Уч авлод вакиллари ўртасидаги савол-жавоб, дилдан суҳбат барча иштирокчилар, айниқса, ёшларда унутилмас таассурот қолдирди.

Тадбир давомида ФВВ Академияси, Фуқаро муҳофазаси институти, Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш маркази, Шаҳрисабз “Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицейи ҳамда ҳудудий бошқармаларнинг Ҳаётий фаолият хавфсизлиги ўқув марказларида фаол ва намунали хизмат қилиб келаётган бир гуруҳ ўқитувчи ва мураббийлар вазирлик раҳбарияти томонидан муносиб тақдирландилар.

Анвар ҚОБИЛОВ ва  
Даврон СУЛАЙМОНОВ  
тайёрлади.



Бухоро вилояти Жондор туманидаги 5-умумтаълим мактаб ҳамда 125-мактабгача таълим муассасасида Устоз ва мураббийлар кунига бағишлаб тадбир ўтказилди.



## ҲАМИША ЭЗОЗДА!

Тадбир давомида вилоят ФВБ ҳарбий хизматчилари устоз ва мураббийларни касб байрамлари билан қизгин табриклар экан, бу табаррук зотнинг ҳар бир инсонни шахс сифатида камол топишида беқиёс ўрни борлигини таъкидлашди. Ўқувчилар томонидан ижро этилган устозларни мадҳ этувчи куй ва қўшиқлар, шунингдек, ажойиб шеърлар кеча янада файз киритди.

Тадбир сўнггида нафақага кузатилаётган фахрий устозларга эсдалик совғалари тақдим этилди.

**С.МУРТАЗОЕВ,**

*Бухоро вилояти ФВБ бўлим инспектори, капитан.*



## ТАКЛИФ ВА ТАШАББУС

Сирдарё вилоятининг Боёвут ҳамда Ховос туманларида “Раҳбар ва ёшлар учрашуви” ўтказилди.

Унда вилоят ФВБ бошлиғи, Гулистон ҳарбий прокурори ҳамда оталиққа олинган ёшлар иштирок этдилар.

Қизгин ва сермазмун кечган суҳбатда ёшлар профилактика ҳисоб, пробацация назоратидан чиқиш, муддатли ҳарбий хизмат, ишга ва ўқишга кириш, соғлиғини янада яхшилаш ва бошқа бир қатор масалалар юзасидан маълумотга эга бўлдилар.

Тадбир давомида аниқланган 31 та муаммо ва камчиликларнинг 10 таси жойида ижобий ҳал этилиб, қолганларини ҳал этишнинг зарур чора-тадбирлари ва уларни амалга ошириш муддатлари белгилаб олинди. Шу билан бирга бўш иш ўринлари ярмаркаси ҳам ўтказилиб, ёшлар муносиб иш ўринлари билан таъминландилар.

**Алишер АБИДЖАНОВ,**

*Сирдарё вилояти ФВБ бошлиғи ўринбосари, подполковник.*

**Худойшукур АМИНОВ,**

*бошқарма бўлим бош инспектори, лейтенант.*

## САЙЛОВЛАРНИ ТАДБИРЛАРИ

Андижон вилояти Шаҳрихон тумани ФВ бўлими томонидан Қонунчилик палатаси ва маҳаллий Кенгашлар депутатлари сайловига тайёргарлик кўриш ва ўтказиш даврида ёнгин хавфсизлигини таъминлаш ва фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш бўйича ташкилий тадбирлар белгиланган.

Ушбу режага асосан туманда ташкил этилган 77 та сайлов участка раислари иштирокида сайлов комиссия ходимлари билан ҳамкорликда ўқув трейнинг машғулоти ўтказилиб келинмоқда.

**О.РАҲМАТОВ,**

*Шаҳрихон тумани ФВ бўлими катта инспектори, майор.*

## САЁҲАТ



Навоий вилояти Хатирчи тумани ФВ бўлими томонидан “Дамариқ”, “Гулистон”, “Янгиработ”, “Муस्ताқиллик”, “Зарбдор”, “Миёнқол” ва “Каттасой” маҳаллаларидаги оталиққа олинган ёшлар билан вилоятнинг кўҳна Нурота туманининг диққатга сазовор ва муқаддас жойларига саёҳат ташкил этилди.

**Мўмин ЎРАЛОВ,**

*Хатирчи тумани ФВ бўлими бошлиғи ўринбосари, капитан.*



## МАТОНАТДА ҲАММАГА ЎРНАК

Тўрақўрғон тумани прокурори А.Юсупов ва туман ФВ бўлими ташаббуси билан спорт мактаби, ногиронлар жамияти ва “Инсон” ижтимоий хизматлар маркази ҳамкорлигида спортнинг пара энгил атлетика, югуриш, пара ядро ва найза улоқтириш, пара дзюдо, пара стол тенниси, пара шахмат ва шашка, расм чизиш, бокс ҳамда кураш турлари бўйича мусобақа ўтказилди.

Тадбирда вилоят прокурори ўринбосари Б.Исмоилов, туман ФВ бўлими раҳбарлари, ходимлари ва шунингдек, Париж шаҳрида бўлиб ўтган XVII ёзги Паралимпия ўйинларида кумуш медални қўлга киритган Кумуш Ходжаевалар иштирок этишди.

Яқунда ғолиб ва иштирокчиларга совринлар топширилди.

**А.АРИПОВ,**

*Тўрақўрғон тумани ФВ бўлими ТБ бошлиғи, майор.*

## МЕҲНАТ ЯРМАРКАСИ



Чуст тумани прокуратураси ташаббуси билан туман камбағалликни қисқартириш ва бандликка кўмаклашиш бўлими томонидан 2-сектор ҳудудидаги “Булоқбоши” МФЙ да бўш иш ўринлари Меҳнат ярмаркаси ташкил этилди.

Унда туманда фаолият юритаётган 35 та корхона ва ташкилотлар 435 та бўш ўринлари билан қатнашдилар.

Меҳнат ярмаркасида мурожаат қилганларнинг 20 нафарига турли йўналишлар бўйича ишга жойлаштириш учун йўланмалар берилди.

**Турсунали ЖўРАЕВ,**

*Чуст тумани ФВ бўлими бошлиғи, подполковник.*

Самарқанд вилоятида қўмондонлик-штаб ўқув машқлари ташкил этилди.

## ЗАРУР КўРСАТМАЛАР БЕРИЛДИ



Фавқулодда вазиятлар вазирининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи полковник С.Зупаров раҳбарлигида ўтказилган мазкур машқ давомида вилоят ҳудудида энергетика ва коммунал соҳа объектларининг 2024–2025-йиллар куз-қиш мавсумига тайёргарлик кўриш, мавсум давомида иссиқлик ва энергетика тармоқларини барқарор ишлаши, содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятлар ва йирик аварияларнинг олдини олиш ҳамда ёнгин хавфсизлигини таъминлаш тадбирларини самарали ташкил этиш бўйича амалий ҳаракатлар олиб берилди.

Аҳолини фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилиш, юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларда талафотларнинг олдини олиш, қутқарув ва фуқаро муҳофазаси тузилмаларини қутқарув ишлари ҳамда кечиктириб бўлмайдиган бошқа ишларни бажариш, фуқаро муҳофазаси соҳасидаги тайёргарлигини ошириш ҳам синовдан ўтказилди.

Машқ якунида йўл қўйилган камчиликлар муҳокама қилиниб, зарур кўрсатмалар берилди.

**Илҳом БОҚИЕВ,**

*Самарқанд вилояти ФВБ ахборот хизмати бошлиғи, капитан.*

## СЕМИНАР

Урганч шаҳридаги алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган заиф эшитувчи болалар учун ихтисослаштирилган 32-мактаб-интернати ҳамда вилоят кўзи ожизлар кутубхонасида “Фавқулодда вазиятларда, хусусан зилзилада тўғри ҳаракат қилиш қоидалари” мавзусида ўқув семинарлари ўтказилди.

Фуқаро муҳофазаси институти томонидан тақдим этилган ўқув қўлланмаларнинг мазмун-моҳияти семинар иштирокчиларига етказилди ва соҳага оид махсус электрон қўлланмалар, видеомашғулотлар ёзилган диск вилоят кўзи ожизлар кутубхонаси ҳамда мактаб-интернатининг масъул ходимларига топширилди.

**Иzzатбек ПАЛВАНОВ,**

*Хоразм вилояти ФВБ ҲФХУМ бошлиғи, майор.*

## УЧРАШУВ

Наманган вилояти Янгиқўрғон туманида вилоят ФВБга бириктирилган 2-сектор ҳудудидаги “Хўжашўркент” МФЙ да жойлашган 14-умумталим мактабида маҳалла ёшлари билан “Раҳбар ва ёшлар” учрашуви ўтказилди.

Унда туман ФВ бўлими бошлиғи маёр А.Эрмирзаев иштирок этиб, суҳбат давомида ёшларга юртимизда ёшлар учун яратилаётган шарт-шароитлар, ҳарбий ватанпарварлик ва ватанга бўлган муҳаббатини ошириш, ҳарбий билим юртлари ва Темурубеклар мактабидаги талабалар учун яратилган шарт-шароитлар, олий билим юртларига кириш учун квоталар тўғрисида суҳбатлашиб, ёшлар томонидан берилган саволларга жавоблар бериб ўтди.

Учрашув сўнггида ёшларга китоблар тарқатилди.

**А.ЭРМИРЗАЕВ,**

*Янгиқўрғон тумани ФВ бўлими бошлиғи, майор.*

**М.МАДАЛИЕВ,**

*бўлим 27-ЁҚҚ бошлиғи, кичик сержант.*

## KASBIM – MENING FAXRIM



Harbiy inson haqida gap ketganda avvalo, ko'z o'ngimizda mehribon, halol, adolatli, ham ruhan, ham jismonan kuchli inson qiyofasi gavdalanadi. Ular o'zini emas, o'zgarlar hayoti va tinchligini ustun qo'yishadi. FVV O'M va TYTTEB "NKMK" AJ va "Navoiyuran" 11-YQQ smena boshlig'i leytenant Xudoyor Qandiyorov ham ana shunday harbiylar sir-asiga kiradi.

Darhaqiqat, har bir insonning kamol to'pishida, ma'naviyatini yuksalishida oiladagi tarbiyaning o'rni beqiyos. Qahramonimiz ham bolaligidagi harbiy bo'lish maqsadini o'zgartirmadi. O'z maqsadi sari intildi, maktabda a'lo

baholarga o'qidi. Mana bugun esa o'zi orzu qilganidek qutqaruvchi bo'ldi.

– Qutqaruvchilikning mas'uliyati juda katta, – deydi suhbardoshimiz. – Bolaligidagi bir voqea hech esimdan chiqmaydi. Buvim bilan yozning jazirama kunlarining birida ko'chamiz bo'ylab ketayotgandik. Shu payt avtohalokat natijasida yong'in sodir bo'lib, maxsus mashinalarda yong'inni o'chirayotgan o't o'chiruvchilar, yonayotgan mashinadan insonlarni olib tushayotgan soha xodimlarini o'shanda ilk bor ko'rib hayratda qolganman. O'shanda buvimga qarab bir kun kelib, men ham yong'in-qutqaruvchi bo'laman, deya aytganman. Shu kundan boshlab oldimga qo'ygan maqsadim yo'lida astoydil harakat qildim. Izlanishdan, intilishdan to'xtamdim. Oradan vaqtlar o'tib maqsadimga erishdim. Kechagina qilgan orzularimda bugun dadillik bilan qadam qo'yayapman.

Ha, bo'ladigan bola boshidan ma'lum, degan gap bejizga aytilmagan, Xudoyor harbiylikka bo'lgan sadoqatini avvalo oilasida shakllantirgan, ildizini mustahkam o'rnatgan. Suhbatdoshimiz mutolaani sevuvchi, kitoblarga mehri boshqacha. Chunki tafakkuri va ma'naviyati boy insondan sadoqatni, odobni, axloqiy sifatlarini hamda muomila madaniyatini ko'rish mumkin.

– Oliy dargohda menga ta'lim bergan yetuk mutaxassislarim izidan borayotganim meni quvontiradi, – deydi X.Qandiyorov. – Olgan nazariy bilimlarimni amaliyotimda qo'llab kelmoqdaman. Mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalangan holda sport musobaqalari, turli xil ma'naviy tadbirlar, konferensiyalarda qatnashib, o'z fikrlarimni, takliflarimni berib kelmoqdaman. Chunki doimo erkin fikrlashni, o'z ustimda shug'ullanishni afzal bilganman. Yigit kishining sadoqati oliy burchi Vatani, ota-onasi va kelajakda oila qursa ayoliga, farzandlariga bo'lgan mehr-muhabbatida namoyon bo'ladi.

**Rushana ROZABOYEVA,**

*O'zJOKU harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi.*

## MAVSUMGA TAYYORMISIZ?

Qashqadaryo viloyati hududidagi 2267 ta ko'p qavatli uylar va ulardagi 57521 ta xonadonlardan 902 ta ko'p qavatli uylar va ulardagi 20274 ta xonadonlar tekshirib chiqildi.



Mazkur profilaktik tadbirlar davomida qarovchisi yo'q, yolg'iz yashovchi qariya va nogironlar, ruhiy kasalliklar dispanserlarida ro'yxatda turuvchi va spirtlik ichimliklarga ruju qo'ygan fuqarolarga alohida e'tibor qaratildi. Qolaversa, viloyat FVB tomonidan 2024 yilning o'tgan 8 oyi davomida o'tkazilgan maxsus-taktik o'quv mashg'ulotlari va profilaktik ishlari natijasida 7345 ta bino va inshootlarda yong'in kelib chiqish xavfi oldi olingan.

**Qashqadaryo viloyati FVB**  
axborot xizmati.

## MARKAZDA MASHG'ULOT

Fuqaro muhofazasi instituti Favqulodda vaziyatlar simulyatsiya markaziga Amerika Qo'shma Shtatlarining O'zbekistondagi elchixonasi xodimlari bilan ko'rgazmali o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Mashg'ulot davomida ishtirokchilar markazda tashkil etilgan zilzila tarixi muzeyi, bilimlarni sinash hamda relaksatsiya xonalari bilan yaqindan tanishib, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni imitatsiya qiluvchi trenajyorlar orqali amaliy ko'nikmalarini yanada oshirishdi.

Tinglovchilar bilim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar elchixona xodimlarida katta taassurot qoldirdi.

**A.MUSTAFAYEV,**  
FMI FV simulatsiya markazi  
boshlig'i, podpolkovnik.



## KO'RGAZMALI O'QUV

Andijon shahridagi Nodirabegim istirohat bog'ida kichik hajmli kemalardan to'g'ri foydalanish bo'yicha ko'rgazmali o'quv-amaliy seminar o'tkazildi.

"Aholini suvda cho'kishi bilan bog'liq noxush holatlarning oldini olish, viloyatning cho'milish havzalarida xavfsizlikni hamda kichik hajmli kemalar va ular turadigan bazalardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash" mavzusida bo'lib o'tgan mazkur tadbirida kichik hajmli kemalar, gidrosikl, motorli qayiqalarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz holatlarda jabrlanganlarni qutqarish va ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullari amalda sinovdan o'tkazildi.



Seminarga viloyat FVB, Milliy Gvardiya, Andijon davlat universiteti talabalari, shuningdek, favqulodda vaziyatlar davlat quyi tizimiga kiruvchi korxonalar va tashkilot xodimlari qatnashdilar.

**Hayotbek RAHIMOV,**  
Andijon viloyati FVB axborot xizmati  
boshlig'i, kapitan.

## HAM SAYOHAT, HAM ZIYORAT

Mirishkor tumani FV bo'limi tashabbusi bilan tumandagi 2-sektor yoshlari uchun Qarshi tumanida joylashgan "Abu Muin An-Nasafiy" ziyoratgohiga sayohat tashkillashtirildi.

Unda, mutaxassislar tomonidan yoshlarga majmua haqida batafsil ma'lumotlar berilib, undagi yodgorliklar birma-bir tanishtirildi.

Tadbir jarayonida yoshlar viloyat FVB mas'ullari bilan o'zaro muloqotda bo'lishib, sohaga oid qiziqtirgan savollariga javob oldilar.

Muloqot so'nggida mas'ullar tomonidan faol yoshlarga esdalik uchun kitoblar taqdim etildi.

**Azamat HAMRAYEV,**  
Mirishkor tumani FV bo'limi boshlig'i,  
mayor.



## ARNASOYDAGI O'RGANISH

Arnasoy tumani FV bo'limi boshchiligidagi ishchi guruh joylarda aholi bilan uchrashib, energiya resurslaridan oqilona foydalanish, tejamkor gaz uskunalarini, ularni sohada joriy etib borilayotgani to'g'risida tushunchalar va tavsiyalar berishdi.



Tumandagi "Oltin vodi" mahalla ahli va hududdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan ishchi guruh a'zolari bu yerda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari bilan tanishdilar.

Shuningdek, yirik ishlab chiqarish korxonalarini va ularda energetika tejamkorlik bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham ko'zdan kechirildi.

Targ'ibot tadbirlari doirasida hududdagi umumta'lim maktab o'quvchi yoshlari bilan uchrashuv o'tkazilib, xonadonlarda tabiiy gaz va elektr energiyasidan oqilona va xavfsiz foydalanish, yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, yurtimizga energiya resurslarini tejash borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida yosh avlod vakillariga tushunchalar berildi.

**Anvar QLICHYEV,**  
Arnasoy tumani FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, kapitan.  
**Mirvoxiid AKROMOV,**  
bo'lim inspektori, kichik serjant.

## MAROQLI SUHBAT

Favqulodda vaziyatlar vazirligi O'ta muhim va toifalangan obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish boshqarmasi "Uzbekistan Airports" AJ obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan "Uzbekistan airports handling" MCHJda uchrashuv o'tkazildilar.

Uchrashuv davomida asosiy e'tibor bo'lim, xizmat boshliqlari va ishchi-xizmatchi xodimlarning yong'in xavfsizligi masalalarida bilim

va ko'nikmalarini oshirish hamda ularda shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish borasida tushuntirish



ishlari olib borilib, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berildi.

**Sh.QODIROV,**  
FVV Aeroportlarda yong'in  
xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish  
bo'limi bosh inspektori, podpolkovnik.  
**B.TO'XTAMUROTOV,**  
inspektor, kapitan.



## BETALAFOT O'TKAZAYLIK!

Namangan viloyati Milliy Gvardiya boshqarmasidagi xizmatchi va harbiy xizmatchilar bilan birgalikda, kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktik tadbir o'tkazildi.

Tadbirida ko'p qavatli uylarda ijarada yashovchi harbiy xizmatchilarning xonadonlarini qish mavsumida isitilishi, yosh bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik, ruxsat etilmagan isitish pechlari yordamida ish joylari va xonadonlarini isitishda foydalanmaslik, dudburomlarni mavsum oldidan tozalash choralarini ko'rish hamda harbiy xizmatchilar boshqaruvida bo'lgan shaxsiy transport vositalariga o'rnatilgan gaz ballonlarni o'z vaqtida sinov ko'rigidan o'tkazilishi, gaz quyish shoxobchalariga kirgan vaqtida qoida-talablarga rioya etishlari bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Nozimjon RAHMONOV,  
Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.

## PROFILAKTIKA



Toshkent viloyati FVB "Maxam-Chirchiq" AJ OYXTTEB P va NB inspektorlari tomonidan qurilish joylarida keng ko'lamlil profilaktik tadbirlar o'tkazilib, uchrashuvlar, amaliy hamda nazariy mashq va mashg'ulotlar tashkil etilmoqda. Bu esa o'z navbatida, qurilish joylarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bekruz ERGASHOV,  
"Maxam-Chirchiq" AJ OYXTTEB P va NB inspektori,  
katta leytenant.

## QURILISH OBYEKTLARIDA

Dehqonobod tumanida yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan qurilish maydonlarida bunyodkorlik ishlarini olib borayotgan ishchi-xizmatchilar o'rtasida yong'in, is gazi va chaqnash bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar olib borish bilan bir qatorda to'g'ri harakat qilish yuzasidan o'quv-mashqlari o'tkazildi.

Ishchi xizmatchilar va fuqarolarning sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarda to'g'ri harakat qilish va xavfsizlikni ta'minlash, qurilish ishlari davomida texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etish bo'yicha yo'riqnoma berish yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlari o'tkazish orqali tushuntirish tadbirlarining asosiy maqsadi bo'lib xizmat qiladi.

Y.MENGLIYEV,  
Dehqonobod tumani FV bo'limi katta inspektori, kapitan.

## YONG'IN XAVFSIZLIGI

Yangi qurilishni loyihalashtirishda birinchi o'ringda yong'in xavfsizligiga qat'iy rioya etish, qurilish jayronida yong'in xavfsizligini ta'minlash va qo'shni binolarga zarar yetkazmaslik, ish joyida har xil chiqindilarni saqlash yoki ularni yoqish qat'iy man etiladi. Bino ichida o'zboshimchalik bilan loyihadan tashqari qurilish ishlarini olib borish va elektr tarmoqlarini montaj qilish hamda bino va xonalarning shift qismi yong'in vaqtida tez yonuvchi va o'zidan zaharli modda tarqatuvchi plastik qoplamalar bilan qoplanishi ko'p hollarda yong'inga sabab bo'lishi bilan birga, fuqarolarni qutqarish, evakuatsiya ishlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

J.AHMADJONOV,  
Bekobod tumani FV bo'limi katta inspektori,  
leytenant.



## MUHIM MASALA

Namangan davlat pedagogika instituti hamda viloyat FVB hamkorligida Yong'in xavfsizligi yuzasidan profilaktik tadbir o'tkazildi.

Unda institut rektori Bahodir Husanov va boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i polkovnik Akmaljon O'rinboyev boshchiligida xodimlar, professor-o'qituvchilar, tyutorlar va talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Tadbir so'ngida mavzu doirasida mas'ullar va talabalar o'rtasida davra suhbatlari tashkil etilib, yong'in xavfsizligi, uning oldini olish, xavf mavjud bo'lganda qay tartibda ish ko'rish bo'yicha talaba-yoshlarga tushunchalar berildi.

Islomjon MELIBOYEV,  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.  
Shuhrat KARIMOV,  
Namangan shahar FV bo'limi inspektori,  
podpolkovnik.

## TASHVIQOT

Jizzax viloyati Milliy gvardiya Qo'riqlash boshqarmasi shaxsiy tarkibi bilan aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirishi lozim bo'lgan tadbirlar, shuningdek, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, mavsumni betalafot o'tkazish, hamkorlikdagi tadbirlarni yanada takomillashtirish usullari va soha yo'nalishidagi boshqa masalalar yuzasidan seminar tashkil etildi.

Tadbir davomida viloyat FVB xodimlari tomonidan kuz-qish mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar, shuningdek, yong'inlarning tahlili, ularni yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi asosiy omillari, ulardan muhofazalanish usullari hamda favqulodda vaziyatlarning prognozi, ma'lumot va axborot almashinuvi yuzasidan tushunchalar berildi.

Tadbir davomida mutaxassislar ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga javob berib, o'zaro hamkorlik yuzasidan fikr almashdilar.

T.HAMROYEV,  
Jizzax viloyati FVB xodimi, mayor.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodi hududida estakadagi xomashyo va tayyor mahsulotlar sexida vagon sisternalaridan neft mahsulotlarini to'kish vaqtida sodir bo'lgan shartli yong'inni bartaraf etish yuzasidan taktik-maxsus o'quv mashg'ulotlari bo'lib o'tdi.

## TAJIRIBA VA MOHIRLIK



Unda zavodning yong'in-qutqaruv qismlari, avariya-qutqaruv bo'linmalari, harbiylashtirilgan gazdan qutqaruv xizmati, tibbiyot bo'limi va tezkor xizmatlari ishtirok etdi.

Barcha bo'limlarning muvofiqlashtirilgan va professional harakati favqulodda vaziyatlarga tezkorlik bilan javob berishga yuqori darajada tayyorligini ko'rsatdi.

Ishtirokchilar shartli yong'inni tez va samarali bartaraf etish, uning keyingi tarqalishining oldini olish ko'nikmasini namoyish etdilar.

J.ABDUALIMOV,  
BNQIZ MCHJ OYOXTEB P va NB boshlig'i,  
podpolkovnik.

## HAVFSIZLIK TALABLARI

Kimyoviy vositalar bilan yoki mineral o'g'itlar bilan zaharlanganda birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatishda bir qator qoidalarni bilish talab etiladi.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish zaharlanish yuz bergan joyda jabrlanuvchining salomatligiga zarar yetishi va bevosita xavf solish darajasini kamaytirish yoki shunday hodisalarning oldini olish maqsadida ko'rilishi zarur bo'lgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Ko'ngil aynib charchoq paydo bo'lishi, terlash ko'payishi, bosh og'irishi va paylarda og'riq paydo bo'lib, tomirlar tortishishi, ayniqsa, nafas olishning og'irlashishi zaharlanish alomatlariga kiradi.

Bunday holatlarda birinchi navbatda jabrlanuvchi toza havoga olib chiqilib, kiyimlarini yoqasi bo'shatiladi va su'niy nafas oldiriladi. Agar kimyoviy vositalar ust-boshga tushgan bo'lsa yechib tashlash zarur. Zararlangan joylar suv va sovunda yuvib tashlanadi. Ko'zda achishishlar toza suv bilan yuviladi. Shundan so'ng malakali shifokorga murojaat qilinadi.

D.ABDUMAJIDOV,  
Andijon viloyati FVB RK va TBMTE bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

## TARG'IBOT

Dehqonobod tumanida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish mavsumini betalafot o'tkazish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda aholi yashash uylari, ko'p qavatli binolarda nazorat profilaktik tadbirlar, targ'ibot-tashviqot ishlari o'tkazish amalga oshirilmog'da.

O'tkazilayotgan tadbirlar davomida asosan fuqarolar o'rtasida kundalik turmushda tabiiy gaz, elektr va kommunal tarmoqlardan to'g'ri foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilayapti.

S.JUMAQULOV,  
Dehqonobod tumani FV bo'limi kichik inspektori,  
kichik serjant.

## TIZIMLI ISHLAR

Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashkil etilayotgan davra suhbatlari, ko'rgazmali chiqishlar davomida yong'inlarni keltirib chiqaruvchi holatlardan ehtiyot bo'lish, nosoz elektr moslamalaridan foydalanmaslikni targ'ib qiluvchi eslatmalar tarqatilib, tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Yong'in xavfsizligi qoidalari talablarini targ'ib qiluvchi eslatma, yo'riqnoma va plakat-

lar tarqatilmoqda. Tekshiruv va ko'riklar davomida aniqlangan yong'inga qarshi kamchiliklar bartaraf etilmoqda. Olib borilgan profilaktik tadbirlar davomida obyektlarning yong'inga qarshi holati tekshiruvdan o'tkazilmoqda.

**Muborak MIRSAMATOVA,**  
O'z MTRK YXTTEB inspektor,  
kapitan.

## XIZMATLAR HAMKORLIGI

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani "Oqtosh" mahallasidagi "Muborak gaz invest" MCHJ gaz to'kish estakadasida hamkorlikdagi xizmatlar bilan 3 bosqichda ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.



Unda viloyat hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan katta va murakkab yong'inlarda hamda sodir bo'lgan texnogen tusdagi avariya oqibatlarini bartaraf etishda asosiy va maxsus texniklarni hamda shaxsiy tarkibni jangovar shayligini oshirish, qism boshlig'i va smena boshliqlarini, haydovchi qutqaruvchilarni amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratildi.

**Abdunazar SOYIBNAZAROV,**  
Namangan viloyati FVB bo'lim  
boshlig'i.

**Foziljon XO'JAMBERDIEV,**  
To'raqo'rg'on tumani FV bo'limi  
boshlig'i.

## MUNOSIB HOZIRLIK

Xorazm viloyati Gurlan tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan tumanning "Ma'rifat" mahalladasida 300 dan ortiq aholi xonadonlari o'rganildi. 220 ta xonadonning mo'riklarida yong'inga qarshi kurashish jamiyati xodimlari tomonidan tozalash ishlari olib borilgan bo'lsa, 35 ta gaz moslamalari hududiy gaz ta'minoti xodimlari ishtirokida texnik xizmat ko'rsatilib, nosoz gorelkalar o'rniga 10 ta tejamkor gorelkalar o'rnatildi. Elektr uskunalar, simlaridagi kamchiliklar ham ishchi guruh tomonidan joyida bartaraf qilindi.

Shuningdek, qo'lbola usulda tayyorlanadigan konserva mahsulotlarining

inson salomatligi uchun xavfli ekanligi, oziq-ovqatdan zaharlanish og'ir oqibatlarga olib kelishi to'g'risida tushuntirib o'tildi.

**S.ISKANDAROV,**  
Gurlan tumani FV bo'limi boshlig'i,  
mayor.



## TUSHUNTIRILMOQDA

Yong'in-qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi tomonidan favqulodda vaziyat yoki yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish tartibi va qutqaruv ishlarini tashkil etish bo'yicha yong'in o'chirish amaliy-taktik mashqi va odamlar ommaviy yig'iladigan maskanlarda yong'in qutqaruv texnikalari va vositalari namoyish etilmoqda. Tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda aholi yashash xonadonlarida uyma-uy yurib, profilaktik tadbirlar

o'tkazilmoqda. Fuqarolarga elektr va gaz uskunalaridan foydalanishda ularning sozligiga, birinchi galda, sovitish konditsionerlari va shu kabi boshqa maishiy elektr jihozlardan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalari qat'iy amal qilishga e'tibor qaratilishi tushuntirilmoqda.

**Bahodir IBRAGIMOV,**  
O'z MTRK OYXTTEB kichik inspektori,  
kichik serjant.

## DOLZARB MAVZU

Farg'ona shahar FV bo'limi tomonidan aholi va hududlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tekshiruv va profilaktika ishlari amalga oshirilmoqda.



Ushbu tadbirlarda ko'p qavatli aholi yashash xonadonlarida tadbirkorlik subyektlarida DMTT larda fuqarolarga yong'in xavfsizligi qoidalari rioya etish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda bunday holatlarda tez va aniq to'g'ri harakat qilish to'g'risida tavsiyalar berilmoqda.

**Ahldin ALIJONOV,**  
Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati  
rahbari, kapitan.

Qibray tumani FV bo'limi tomonidan otaliqqa olingan yoshlar va tizimda xizmat olib borayotgan yosh qutqaruvchilar va soha rahbarlari ishtirokida "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" o'tkazildi.

## DAXLDORLIK TUYG'ULARI



Tizimda faoliyat olib borayotgan va mahallalardagi yoshlar bilan ochiq va samimiy muloqot o'tkazish orqali ularning muammolarini o'rganish, ularda yurtga sadoqat va vatanparvarlik hissini oshirish, jamiyat hayotiga daxldorlik kabi ezgu tuyg'ularni shakllantirish uchrashuvning asosiy maqsadi bo'ldi.

Tadbir so'nggida bir guruh faol mahalla yoshlar yetakchilari va yoshlarga tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.

**J.ABDUQAYUMOV,**  
Toshkent viloyati FVB OYXTTEB  
P va NB boshlig'i, podpolkovnik.  
**M.RUSTAMOV,**  
P va NB inspektori, katta leytenant.

## TAQDIMNOMALAR KIRITILDI

Farg'ona viloyati Beshariq tumanida soha xodimlari tomonidan tuman hududidagi 62 ta mahalladagi ko'p qavatli uylar va yakka tartibdagi aholi yashash xonadonlarining yong'inga qarshi holati o'rganib chiqildi.

Ushbu o'rganishlarda 21548 ta xonadonning yong'inga qarshi holati o'rganib chiqilib 128975 nafar fuqaroga is gazidan zaharlanishning oldini olish, yong'in xavfsizligi qoidalari rioya qilish, shuningdek, kuz-qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

Aholi turar joylarida yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida o'tkazilgan o'rganish va tekshiruvlar davomida jami 18746 ta kamchilik aniqlandi. Shundan 18674 tasi tadbirlar davomida bartaraf etildi.

Mazkur olib borilgan profilaktik tadbirlar davomida 11 marotaba qo'lbola saqlagichlardan foydalanish, 2 marotaba evakuatsiya yo'llarining to'sib

qo'yilishi, 4 marotaba yerto'lalarda va 2 marotaba chordoqlarda me'yorida ortiqcha yonuvchi mahsulotlar saqlash, 14 ta holatda nosoz dudburonlardan foydalanish, 8 ta holatda gaz ta'minotiga nostandart shlanglar orqali ulanish va boshqa kamchiliklar aniqlanib, tegishli idora vakillari bilan hamkorlikda bartaraf etildi.

Aholi turar joylarida yong'in xavfsizligini ta'minlashda yechimini topmayotgan muammolar bo'yicha tuman hokimligiga hamda tegishli idoralarga 13 marotaba axborotnoma, ma'lumotnoma va taqdimnomalar kiritildi.

Davlat tasarrufidagi 145 ta ijtimoiy soha obyektlarida tekshiruv o'tkazilib, yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha davlat yong'in nazoratining bayonnomalari tuzildi.

**Ozod BOYMURODOV,**  
Beshariq tumani FV bo'limi  
boshlig'i, mayor.  
**Oybek HAKIMOV,**  
bo'lim inspektori, katta leytenant.

## VAZIFALAR BELGILANDI

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanida sohaga aloqador tashkilotlar hamda ijtimoiy soha vakillari ishtirokida o'quv-yig'ilishi o'tkazildi.

Unda tuman hokimi A.Najmiddinov hamda tuman FV bo'limi rahbariyati tomonidan ijtimoiy soha obyektlari, iqtisodiyot tarmoqlari hamda aholi yashash uylarini energiya resurslari bilan barqaror



ta'minlash, qishning qahratonida salbiy holatlar yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan dolzarb vazifalar belgilandi.

**Azizbek ERMIRZAYEV,**  
Yangiqo'rg'on tumani FV bo'limi  
boshlig'i, mayor.

## SARHISOB

Sho'rtan neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasi OYXTTEB 38-yong'in-qutqaruv qismi tomonidan joriy yilning 9 oyi davomida bir qator ishlar bajarildi.

Xususan, yong'in o'chirish avtomobillarning umumiy chiqishlari soni 547 tani tashkil qildi. Qism boshlig'i tomonidan aprel oyida SvaUOGKS-2 separatorlarida, may oyida S va UOGKS-1 kuzatuvchilar binosi va 2-GDTQ separatorlarida hamda avgust oyida SvaUOGKS 1-navbat GXA-3 binolarida kunduzgi va tungi yong'in o'chirish amaliy-taktik mashg'ulotlar o'tkazildi.

Qism shaxsiy tarkibini doimiy shayligini kunduzgi va tungi vaqtlarda tuzilgan tekshirish jadvaliga muvofiq 54 marotaba qism boshlig'i tomonidan shaxsiy tarkibning jangovar shayligi tekshirildi. Aniqlangan kamchiliklar muhokama qilinib, amaliy yordam ko'rsatildi.

Rejaga asosan toza havoda va ruhiy tayyorgarlik yo'laklarida hamda tutunxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

**Qahramon MUSAYEV,**  
Sho'rtan neft-gaz qazib chiqarish  
boshqarmasi OYXTTEB  
38-yong'in-qutqaruv qismi smena  
boshlig'i, mayor.

# КАСБИЙ ФАОЛИЯТДА НУТҚ МАДАНИЯТИ

Маълумки, инсоннинг сўзлаши маърифатдан, тинглаши маданиятдан, англаши эса маънавиятидандир. Булар жамланган ҳолда мулоқот этикети ва муомала маданияти, бошқача айтганда, нотиклик санъатининг таркибий қисмларидир. Инсон кўрган, билган, тинглаган нарса-ҳодисаси ҳақидаги фикрини эмин-эркин, мустақил тарзда оғзаки ҳамда ёзма йўсинда етказа олиши керак. Туркий халқларнинг нутқ одобига оид ўғитларининг илк намуналари қадимий туркий ёзма ёдгорликларда учрайди. Жумладан, Култегин ёдгорлигидаги кичик ёзувда табғачларнинг ширинсўз эканлиги ҳақида ва уларнинг хушмуомала билан йироқ элларни ўзларига яқинлаштирганлиги алоҳида эътироф этилган. Кайковуснинг “Қобуснома” асарида нутқ маданияти ва одобининг қонун-қоидалари ҳамда нутқ меъёрларига амал қилиш масалалари хусусида муҳим фикрлар баён этилган. Шарқ мутафаккирлари Кайковуснинг “Қобуснома”, Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибат ул-ҳақойиқ”, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асарларида, Аҳмад Яссавий “Ҳикматлар”ида тил, нутқ ҳамда нутқ маданияти ва одоби ҳақида айтган қимматли фикрларини мунтазам ўқиб ўрганиб боришимиз даркор. XV асрдаёқ ўзбек адабий тилининг нутқ маданияти ва унинг ўзига хос меъёрлари бўлган. Алишер Навоий ҳаётий ва ижодий фаолияти билан ўз даври нутқ маданиятига, нутқ одобига улкан ҳисса қўшган бўлса, кейинчалик Бобур, Гулханий, Нодира, Огаҳий, Фурқат, Муқимий

микрофон ва видеокамера орқали жамоатчиликка фикр етказиш маданияти, телевидение ва радиоканалларга интервью бериш технологиясини билиш лозим. Нутқнинг мантиқий ва жозибали бўлишини таъминлайдиган муҳим омиллардан бири тил имкониятларидан унумли фойдаланган ҳолда, ҳаммабоб тарзда таъсирчан фикр етказишдир. Биз одатда ташқи кўринишимизга эътибор қиламиз, ваҳоланки, ички дунёимизнинг кўзгуси бўлган сўзимизга, нутқимизга унчалик диққат қилавермас эканмиз. Биз нега кўпчилик олдида, минбарда ҳаяжонланиб гапира олмай қоламиз. Бу нутқ устида кўпроқ ишламаганимиздан эканини фаҳмлашимиз жоиздир. Китобга яқин бўлган, уни мушоҳада қилган инсоннинг нутқи равон бўлиши аниқ. Қолаверса, сўз бойлиги ҳам ошиб бораверади. Нутқ маданияти, мулоқот мезонлари борасида устозлардан олган билимларимиз бизга мотивация беради. Ҳуқуқ, хулқ тушунчалари нутқ тушунчаси билан чамбарчас боғлиқ. Тил имкониятларини мулоқот жараёнида қўллаш бир томон бўлса, соҳавий билимга эга бўлиш ҳам энг муҳим томондир. Ҳар қандай ходимнинг вертикал ва горизонталь карьераси унинг билими, одоби, хулқий ва нутқий маданиятига боғлиқлигини тўла англаб етишимиз керак. “Бешиқдан то қабргача илм изла”, деган ҳадис бежиз эмас. Дунёда ҳар куни деярлик барча соҳалар бўйича янгиликлар оқими кириб келмоқда. Шундай экан, барча хабар ва янгиликлардан бохабар бўлиш давр талабидир.

адабий тил миллий тилнинг олий шакли сифатида эътироф этилади ва ўзининг энг яхши намуналари билан халқнинг маданият соҳасидаги ютуқлари ва анъаналарини мустаҳкамлайди ҳамда бойитади. Нутқ маданияти ижтимоий ҳодиса бўлиб, у жамият, фан-техника, маданий ва адабий ҳаёт ривожини билан узвий боғлиқ ҳолда тараққий этади.

Нутқ одоби қатор талабларга жавоб бериши керак. Ижобий натижага йўналганлик, низо ва баҳсли ҳолатларни ечишга интилиш, келишиш, битимга эришишга ҳаракат қилиш нутқ одобининг ижобий услубидир. Нутқ одобига риоя қилмаслик салбий жиҳат бўлиб, бундай мулоқот низога, тарафкашликка, шахслараро зиддиятга олиб келиши мумкин. Ишга алоқадор мулоқотда объектив мезонлар асосида масалани баҳолаш, вазиятни холис экспертиза қилиш, хулосани аниқ ифодалаш, тенглик, муросасозлик тамойилларидан келиб чиқиш, ўз шахсий фикрига қарши томоннинг ҳуқуқини тан олиш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, бу жараён холислик, суҳбатдошига ҳурмат билан муносабатда бўлиш, мурожаат қилишда, мулоҳаза юритиш ва фикрни ифодалашда мулоқотнинг умуммаданий меъёрларидан фойдаланишни тақозо этади. Нутқ одобининг маданий меъёрлари миннатдорчилик, тилак билдириш, кечирим сўраш, илтимос қилиш, таклиф қилиш, маслаҳат беришнинг тартибланган бўлишини назарда тутати. Ишга алоқадор суҳбатнинг мазмуни, аниқ амалий масалаларни муҳокама қилишдан ташқари, юпатиш, ҳамдардлик билдириш, шунингдек, мулозамат, қўллаб-қувватлаш, қўшилмаслик усулларини ҳам одоб доирасида ифода этиш ва баён қилиш муҳим ўрин тутати.

Давлат бошқарувининг тинчлик даврида, ҳатто уруш шароитида ҳам қўшинни бошқаришда нотиклик санъатининг алоҳида ўрни бўлган. Чунки кўзланган мақсад, бу – стратегия бўлса, уни амалга ошириш йўллари, бу тактикадир. Демак, ҳар қандай стратегиянинг таъсирчан механизми тил тактикасидир. Ҳарбий нотиклик моҳият эътибори билан жанговарликни, хитоб ва даъватни англатади. Шунинг учун ҳам машхур Рим нотиғи Марк Туллий Цицерон “тарихда ё яхши ҳарбий саркарда ёки нотиқ бўлиш керак”, деган. Демак, нотиклик ва ҳарбий соҳадаги фаолият ўзаро узвий боғлиқ. Ҳар қандай ғалабани таъминлаш мезони бевосита нотиклик маҳорати билан боғлиқ.

Соҳибқирон Амир Темур ҳам жанг санъатида, бошқарув тизимида нотикликнинг алоҳида ўрнини эътироф этгани ва амал қилгани бежиз эмас. Жангда ғалабанинг гарови ўзига ишонч билан боғлиқ бўлгани каби сўзга ҳам бевосита боғлиқ. Темур тузукларини нутқ санъатининг ноёб намунаси дейиш мумкин. Кейинги авлод темурийзодалардан бўлган Заҳриддин Муҳаммад Бобур Соҳибқирон Амир Темурнинг жанг санъати ва бошқарув маҳоратидан ташқари, ўз сўзи, нутқи ва воизлик маҳоратига эга бўлганини ҳам эшитган, билган. “...Ҳар ким ўз сўзига эга бўлсин, ишини билиб ўзи қилсин, яъни раият подшоси айтган сўзини, қилган ишини ўзи айтади, ўзи қилади...”, деган “Темур тузуклари”да. Яхши нутқ эгаси – уқувли, қатъиятли, ўзига ишонган бўлиши даркор, чунки ваъзхонлик – куч. Воиз бўлиш учун, сўзнинг қудрати ва сеҳрини эгаллаш лозим. Амир Темурнинг қудрати, аввало, унинг донишманд фикрларида, маслаҳатли кенгашлардаги сўзланган нутқларида намоёндыр. Чунки XIV асрда марказлашган феодал давлатни тузиш, улкан қўшинга саркардалик қилиш учун ҳар тарафлама билимдон, қатъиятли, воиз бўлиш лозим эди. Ушбу сифатларни Заҳриддин Муҳаммад Бобур ҳақида ҳам айтиш мумкин.

Наполеон Бонапарт жангга киришишга тайёр турган қўшинга қарата шундай дейиши одат бўлган. “Жангда ўлишни ҳамма эплайди. Мард ва жасур жангчиларгина тирик қолади. Менга ўлигингиз эмас, тиригингиз керак. Шундай экан, барчангизга ўлмасликни буюраман, олга!” дея хитоб қиларкан.

**Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.**



каби шоирларнинг асарлари тилида ҳам ўша давр нутқ маданияти ўз ифодасини топган. “Яхши сўз – жон озиғи”, “Буғдой нонинг бўлмаса ҳам буғдой сўзинг бўлсин”, “Уйнаб гапирсанг ҳам ўйлаб гапир”, “Олдига келганни емак – ҳайвоннинг иши, оғзига келганни демак – нодоннинг иши” каби мақол ва ҳикматли сўзларнинг пайдо бўлиши ҳам ўзбек халқида нутқ маданиятига азалдан эътибор кучли бўлганидан дарак беради. Муомала маданияти, коммуникатив компетентлик тушунчаси ниҳоятда муҳим, чунки у оддий сўзлашувдан тортиб илмий, таълимий, ҳатто сиёсий жараёнларгача бўлган воқеликни қамраб олади. Антуан Цент Экзюпери “бу дунёдаги бирдан-бир ҳақиқий неъмат одамларнинг бир-бири билан мулоқотидир”, дея бежиз уқтирмаган.

Чунки ижтимоий-сиёсий жараёнлардаги мулоқотлар заминда бугунги кунда турли жабҳаларда олиб борилаётган сиёсат ва ислохотларнинг мазмун-моҳиятини оммага, кенг жамоатчиликка содда, равон ва аниқ етказа олиш зарурдир. омма олдида нутқ сўзлаш, фикрни эркин баён этиш услублари, халқ билан мулоқот ва муомала маданиятини ривожлантириш, нутқ хусусиятларини билиш ва амалда қўллаш, минбар,

Инсоннинг интеллектуал савияси, миллатнинг менталитети, маънавий бойлиги ортиб боргани сайин нутқ маданияти ҳам юксалиб боради. Нутқ маданияти нутқ сўзлаш, маъруза қилиш, ўзаро мулоқот, савол-жавоб, давра суҳбатларида ўзбек адабий тили бойлигидан самарали фойдаланиш, гоёвий, мафкуравий, маънавий, тарбиявий жиҳатларни сингдириш, халқ оғзаки ижоди, ҳикматли сўзлар, мақоллар, катталар ўғитларидан ўз ўрнида, меъёрида фойдаланиш, нутқнинг қисқа, аниқ-равшан, теран мазмунли, кенг қамровли бўлишига эътибор бериш, нутқ, маъруза, суҳбат охирида қисқа хулосалар чиқариш, зарурат туғилганда тингловчилар, суҳбатдошлар билан одоб доирасида, вазминлик асосида баҳслашиш, мунозара юритиш каби хусусиятларни ўзида мужассам этиши лозим. Юксак нутқ маданияти кишининг умумий маданияти, фикрлаш маданияти, тилга нисбатан онгли меҳр-муҳаббатини намоён қилади.

Нутқ маданияти назарий ва амалий фан бўлиб, у тил амалиётига таъсир этиш мақсадида адабий тил тарихи, грамматика, услубшунослик ва типшунослик бўлимларининг ютуқлари ҳамда хулосаларини умумлаштиради. Нутқ маданияти назариясида

## ЭНГ ХАВФЛИ ХАКЕР

Кевин Митник 1982 йилда Шимолий Америка ҳаво муҳофазаси қўмондонлиги компьютерини ҳазил тариқасида бузиб кирган. Шундан сўнг, у хавфсизлик тизимларида заиф томонларни қидириб, ўз имкониятларини ўрганишни давом эттирди. Мисол учун, у қўнғироқларни тинглаш ва ҳазил қилиш ёки мукофотларни ютиш учун телефон компанияларига дастурига киришни яхши кўрарди. Улар орасида уй телефонларини қайта дастурлаш ҳам бор эди. Йигит ўзининг қобилиятдан ёмон ниятларига қарши фойдаланган: телефон сўзлашувларидан бирида у гаров ҳақидаги талабга ҳам гувоҳ бўлган.

1988 йилда кибердаҳо йирик "Digital Equipment Corporation" компьютер компанияси тармоғига киришга муваффақ бўлган. У тизим администраторига қўнғироқ қилиб, ўзини тизимнинг етакчи ишлаб чиқарувчиси сифатида кўрсатди ва суҳбатдошини ўз паролини унутганига ишонтира олган. Парол қайта тикланганида, у ушбу ҳисоб остида тизимга кирди ва барча маълумотларни DEC операция тизимининг манба кодини юклаб олган ҳакер дўстларига ўтказган. Митникнинг дўстлари, унинг топқирлигидан ҳайратга тушган бўлсаларда, охир-оқибат, бузғунчилик ҳақида хабар бериб, уни хавфсизлик хизматига топширишган. Расмийлар кейинчалик уни компанияга 4 миллион доллар зарар етказганликда ва 1 миллион долларлик дастурий таъминотни ўғирлаганликда айблаган. 1989 йилда Митник илк бор бир йилни федерал қамоқхонада ўтказди. Кейин яна олти ой давомида у "компьютерга қарамликдан даволанди", ҳатто қурималарга тегиши тақиқланди.

Қамоқхонадан чиққач, Кевин ҳуқуқ-тартибот идоралари уни кузатиб юришини сезиб қолган. Лекин бу унинг ҳакерлик фаолияти билан шуғулланишда давом этишига тўсқинлик қилмаган. У Федерал қидирув бюросини алдаб, унга тегишли ҳар қандай маълумотни топишга ҳаракат қилмоқчи эди. 1993 йилда Калифорния штати полицияси Митникни ФКБ агентларининг телефонларини тинглаган ва ҳайдовчилик гувоҳномаси маълумотлар базасига ноқонуний кириш имконига эга бўлган, деб даъво қилди. Уни ҳибсга олиш учун ордер берилган, бироқ уddaбурон ҳакер узоқ вақт ёлғон номлар остида яширинишга муваффақ бўлган, тез-тез яшаш жойини ўзгартирган.

1995 йил 15 февралда ФКБ Кевин Митникни Шимолий Каролинадаги квартирасида ҳибсга олган. Киберхавфсизлик бўйича япониялик мутахассис Цутому Шимомура уни уяли сканерлар



ёрдамида кузатишга ёрдам берган. Суд жараёнида эса Митник ҳамкасбининг маҳоратини ҳурмат қилишини тан олган.

Ҳукумат уни "Motorola", "Novell", "Nokia" ва "Sun Microsystems" каби кўплаб компанияларга миллионлаб доллар зарар етказганликда айблади. Бундан ташқари, унинг компьютерида 20 мингта кредит карта рақамлари мавжуд файл топилган. Маълумотлари ўғирланганлар орасида ҳатто Силикон водийси миллионерлари ҳам топилган. Бироқ Митник бу маълумотдан шахсий манфаатлар учун фойдалангани ҳақида ҳали ҳеч қандай далил йўқ.

Митник 1991 йилда сайёрадаги энг машҳур ҳакер мақомини олган. "The New York Times" журналисти Маркофф кибержониятчи ҳақида бир нечта мақолалар чоп этиб, унинг 1980 йиллардаги ҳужумларининг аксариятини ёритишга ҳаракат қилган. Ҳакер 20 йилгача қамоқ жазосига ҳукм қилинган, бироқ 1999 йилда у бир неча айбловлар бўйича ўз айбига иқроор бўлган, 2000 йил бошида эса озодликка чиққан. Аммо кейинги уч йил давомида унга оддий стационар телефондан бошқа алоқа технологиясидан фойдаланиш тақиқланди.

Озодликка чиққанидан сўнг, Митник тижорат компаниялари ва давлат идоралари ходимларига ижтимоий муҳандислик бўйича маслаҳат ва дарс беришни бошлади. У ахборот хавфсизлигига ихтисослашган "Mitnick Security Consulting" компаниясига асос солган. Бундан ташқари, Митник журналист Уилям Саймон билан ҳаммуаллифликда "Алдаш санъати", "Босқинчилик санъати", "Тармоқдаги шарпа", "Энг йирик ҳакернинг хотиралари" каби бир нечта китобларни ёзган. 2023 йилда жиддий касалликка қарши курашаётган Кевин Митник ишлашда давом этган. Энг сўнги парол кракерини – ахборот хавфсизлигини тезкор текшириш ва заифликларни аниқлаш имконини берувчи дастурни чиқарган. Бу унинг энг охириги ишларидан бири эди.

## ТИРИК ТОШЛАР



Ўзининг гўзал ландшафтлари ва бой тарихи билан машҳур бўлган Руминия ноёб ва сирли геологик ҳодиса – Трвантнинг ҳам ватани ҳисобланади. Бу "тирик тошлар" асрлар давомида маҳаллий аҳоли ва олимларни ҳайратда қолдирган. Ўсиш ва ҳаракат қилиш қобилияти билан тровантлар минтақада эртақ ва афсоналар манбаи бўлиб қолган. Трвантс учун энг машҳур жой Валсеа округида жойлашган Костести кичик бир қишлоқда жойлашган. Маҳаллий қишлоқ аҳолиси тровантларни тирик деб билишади, уларнинг ўсиб-улғайишига гувоҳ бўлишди.

Геологлар учун тровантлар узоқ вақтдан бери жозибали сир бўлиб келган. Аммо йиллар давомида олиб борилган изланишлар ва тадқиқотлар натижасида улар бу ғалати геологик тузилмалар ортидаги ҳақиқатни очиб беришга муваффақ бўлишди.

Тахминан олти миллион йил олдин палео-зипзипалар Трванс деб номланган геологик ҳодиса турини яратган. Улар "цементланган қумтошлар" ёки "бетон" деб номланади. Трвантлар қумтош билан ўралган қаттиқ тош марказидан иборат бўлиб, ўлчамлари кичик тошлардан тортиб бир неча тоннагача бўлган катта тошларгача фарқ қилади. Трвантлар сейсмик силжишлар, дарёлардаги қум чўкиндилари, ёмғир ва кўп вақтни ўз ичига олган жуда мураккаб шароитларда ҳосил бўлади. Жараён қум қаттиқ тош ядро атрофида тўпланганда ва калций карбонатнинг юқори концентратцияси бўлган сув билан цементланганда бошланади. Бу аралашма бир-бирига аралашиб, маҳаллий аҳоли томонидан "ўсаётган тошлар" номи билан машҳур бўлган чинакам мафтункор қоялар ҳосил қилган.

Трвантларни янада ҳаяжонли қиладиган нарса уларнинг ўсиш қобилиятидир. Ғайриоддий кучли ёгингарчилик бўлганда, тровантлар ёмғирда минералларни ўзлаштиради. Бу аллақачон мавжуд бўлган қум ва қумтош конларининг шаклланиши билан бирга, тровантнинг ички қисмига катта босим ўтказадиган кимёвий реакцияга сабаб бўлади. Натижада, тош ўз ядросидан ташқи қобилиги томон кенгайиб, унинг юзасида ўсади. Вақт ўтиши билан кичик конлар ташқарига сурилиб, тоғ жинсларининг ҳажмини ошириб, унга ғалати кўриниш беради. Бироқ, ўсиш тезлиги нисбатан секин, ҳар минг йилда бир неча сантиметр кўшилади. Аммо миллионлаб йиллар давомида бу жинслар ноёб ва ҳайратпанарли шаклларга айланди.

Трвантлар ўсишидан ташқари, жуда секин бўлса ҳам, ҳаракат қилиш қобилиятига эга. Бу ҳаракат уларнинг ўсиш жараёнининг натижасидир. Минералларни ўзлаштириб, кенгайиб бориши билан улар атрофдаги ландшафтни самарали равишда ўзгартириб, муҳим даврларда кичик масофаларни кўчириш учун йўл яратадилар. Олимплар, шунингдек, тровантларнинг кучли ёмғир ёки сейсмик фаоллик каби ташқи омиллар туфайли ҳаракатланишини аниқладилар. Уларнинг ҳаракати одамлар учун деярли сезилмас ҳам, у геологик тадқиқотлар ва тровант тузилмалари яқинида топилган кўчирилган объектларнинг далиллари орқали кузатилган.

Йиллар давомида геологлар уларнинг таркиби ва шаклланиш жараёнини ўрганиш учун кўплаб тровантларни кесиб ташладилар. Улар дарахт ҳалқаларидан фарқли ўлароқ, бу геологик тузилмалар ичида бир нечта ҳалқали эллиптик қатламларга эга эканлигини аниқладилар. Бунинг сабаби шундаки, тошлар ёмғир ёққанда ташқи томондан пуфаклаш орқали самарали ўсади. Ушбу ғайриоддий геологик ижодларни ҳимоя қилиш учун маҳаллий орган 2004 йилда Валча округида "Музеум Трвантпор" ёки Трванс музейи табиий қўриқхонасини ишлаб чиқди. Музей ҳозирда ЮНЕСКО томонидан ҳимояланган.

Гарчи улар тирикдек кўриниши мумкин бўлса-да, тровантлар техник жиҳатдан тирик мавжудотлар эмас. Улар миллионлаб йиллар давомида мавжуд бўлган тоғ жинсларининг ноёб ва ҳайратпанарли туридир. Аммо улар афсона ва ривоятларга айлангани ажабланарли эмас. Ахир, тровантлар тирик қояларга энг яқин нарса бўлиб, улар сайёрадаги ҳар қандай одамдан анча узоқроқ бўлиб, уларни қадимги тарихнинг бир қисмига айлантирган.

Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



# Vaziyat

газетаси

**Муассис:**  
Ўзбекистон  
Республикаси  
Фавқуллода  
вазирлар  
вазирлиги

**Бош муҳаррир**  
Азамат СУЮНОВ

*Газета таҳририят*  
*компьютерхонасида*  
*саҳифаланди.*

Газета ҳар ҳафтанинг  
пайшанба кунини чиқади.  
Топшириш вақти – 15.00  
Топширилди – 15.00

**Навбатчи:**  
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган  
материаллар қайтарилмайди  
ва изоҳ берилмайди.  
Муаллифлар фикри  
таҳририят нуқтаи назаридан  
фарқланиши мумкин.

Газетадан олинган материаллар  
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва  
ахборот агентлигида 2007 йил  
3 январда 0096-сон рақам  
билан рўйхатга олинган  
**ISSN 2091-5292**

**Таҳририят манзили:**  
100084, Тошкент шаҳри,  
Юнусобод тумани,  
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А-уй.  
**Тел.:** (71) 212-69-56  
**Телеграм:** (90) 016-87-67

**Индекс:**  
якка обуначилар ва  
ташкilotлар учун - 382

Газета "BUSINESS PRINT DESIGN"  
босмахонасида босилди.  
Манзил: Тошкент шаҳри,  
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.  
Буюртма №165  
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.  
Адади - 10000 нусха